



BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KREATIVLIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Ruzimova Intizor Xujamuratovna

Urganch davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10349877>

ARTICLE INFO

Received: 05th December 2023

Accepted: 10th December 2023

Online: 11th December 2023

KEY WORDS

Kreativlik, kompetensiya, amaliy kreativ fikrlash ko'nikmalari, xalqaro ta'lim standartlar, ijodiy faoliyat, kreativ sifatlar.

ABSTRACT

Maqolada bo'lajak o'qituvchilarda kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari va tarkibiy bo'laklari bo'yicha ma'lumotlar takidlab o'tilgan. Shu bilan birga bo'lajak o'qituvchilarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish bosqichlari, omillari ham yoritilgan.

Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonini yuqori darajada samarali, sifatli tashkil etish ehtiyoji yuzaga kelgan. Bu ehtiyoj ta'lim sifatiga ta'sir qiluvchi turli ob'ektlar, ularning soni va ular orasidagi o'zaro aloqadorlik bilan bog'liqlik, aloqadorlikni qaror toptirish zarurligini ifodalaydi. Ta'lim tizimi davlat siyosatining asosiy tamoyillari asosida yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish yo'lida faoliyat yurituvchi barcha turdagi ta'lim muassasalari majmui demakdir. Har bir mamlakatning ta'lim tizimi uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Barkamol shaxsni shakllantirishda ta'lim jarayonining o'rni katta. Shu sababli yosh avlodga ta'lim berish jarayoni singdirilishi juda dolzarb masaladir. Ana shu nuqtai nazardan o'qituvchilarining kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish, ta'lim mazmunini fan yutuqlari bilan uyg'unlashtirish metodikasini takomillashtirish o'quvchilarni o'zlashtirish darajasini baholash, hamda o'qituvchi kreativlik kompetensiyasining shakllanganligini tashxislash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Doimiy yangilanuvchi jamiyat hayotiga yosh avlodni tayyorlash va uni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish jarayonlarida faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirish¹ pedagogning muhim kasbiy vazifasi hisoblanadi. Mamlakatimizda inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlarini ro'yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta'lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil islohotlar natijasida interfaol o'qitish metodlari asosida pedagoglarni kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishni keng tatbiq etish imkoniyatlari yaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish" kabi asosiy vazifalar belgilangan. Shu sababdan interfaol o'qitish

¹ [kreativlik-tushunchasi-va-uning \(azkurs.org\)](https://azkurs.org)



texnologiyalari asosida pedagoglarni kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to'laonli anglash uchun dastlab "kreativlik" tushunchasining ma'noni tushunib olish talab² etiladi.

"Kreativlik" tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin: Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida³ iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Kreativlik ta'lim jarayonini tashkillashtirishni o'zida mujassamlashtirib, kreativ ta'lim jarayonini qurish, ta'lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko'nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Kreativlikning mohiyati - intellekt insonning aqliy salohiyati bo'lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo'naltirilgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi. A.X. Maslou kreativlikni 2 turga bo'ladi: iste'dodning kreativligi va shaxsning o'zo'zini aktuallashtirish kreativligi. Shaxsning o'z-o'zini aktuallashtirish kreativligi shaxs bilan uzviy bog'langanligi sababli biz unga kundalik hayotda va kasbiy amaliyotining ko'p yo'nalishlarida duch kelishimiz ehtimoli mavjud. A.X. Maslou kreativlikda o'z-o'zini aktuallashtirishning ikki darajasini keltirib o'tgan: birinchisi – "ixtiyorsiz kreativlik, bunda shaxs birdan aqliga kelish, ruhlanish, qiyin⁴ kechinmalarga ega bo'ladi", "ikkinchisi – ixtiyoriy, og'ir mehnat bilan bog'liq, uzluksiz ta'lim, kamolotga intiluvchanlik". A.X. Maslou kreativlikni inson tabiatining fundamental xarakteristikasi sifatida ko'radi, ya'ni barcha insonlardagi tug'ma qobiliyat, lekin hayoti davomida⁵ ma'lum ijtimoiy to'siqlar natijasida yo'qolib ketadi, deb hisoblaydi. T.A. Barisheva va Yu.A. Jigalovlar pedagogikada kreativlikni tizimli (ko'p bosqichli, ko'p o'lchamli) psixik (ruhiy) ta'lim sifatida talqin etib, unga faqatgina intellektual⁶ potensialni emas, balki motivatsiya, emotsiya, estetik rivojlanish darajasi mavjudligi, kommunikativ parametrlari, kompetentligi va hokazolarni ham kiritadi.

Kompetensiya so'ziga turlicha ta'riflar, yondashuvlar mavjud. Xususan, «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»da kompetensiya so'zi quyidagicha izohlanadi:⁷ kompetensiya (lot. competo – erishyapman, munosibman, loyiqman) – muayyan davlat organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; u yo bu sohadagi bilimlar, tajriba. "Kompetensiya" atamasi keng ma'noda umumiy masalalarni hal etishda amaliy tajribalar asosida bilim va malakalarni qo'llash, muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatini bildiradi. Lotincha "competere"-muvofiq bo'lmoq so'zidan kelib chiqqan. "Tashabbuskorlik" kompetensiyasi. Aniqlash: harakatni boshlab berish va shaxsiy ijobiy jihatlari bilan voqeaga

² [kreativlik-tushunchasi-va-uning \(azkurs.org\)](http://kreativlik-tushunchasi-va-uning (azkurs.org))

³ <https://www.researchgate.net/publication/358667424...>

⁴ [kreativlik-tushunchasi-va-uning \(azkurs.org\)](http://kreativlik-tushunchasi-va-uning (azkurs.org))

⁵ <https://www.researchgate.net/publication/358667424...>

⁶ [kreativlik-tushunchasi-va-uning \(azkurs.org\)](http://kreativlik-tushunchasi-va-uning (azkurs.org))

⁷ <https://ares.uz/storage/app/media/2022/Vol 3 No 1/...>



samarali ta'sir ko'rsata olish. Doimo izlanishda bo'lish⁸, yangi vazifalarni, qo'shimcha ishlarni o'z zimmasiga olish. Odatda har bir lavozim uchun 5-10 ta asosiy kasbiy kompetensiya belgilanadi. Ular bayon etiladi. Bunday holatda o'qituvchi tomonidan test savollari shakllantirilsa maqsad muvofiq bo'ladi. Berilayotgan test topshiriqlarining ma'lum kompetensiyaga sekidan moslahadi. Uning natijalariga ko'ra, o'qituvchining kompetensiyani egallash darajalari aniqlanadi. Keng ma'noda kompetensiya masalaning, shuningdek, muayyan bilim sohasining mohiyatini muvafaqqiyatli hal eishda amaliy tajribaga asoslanib, bilim va ko'nikmalarni qo'llay olish qobiliyatidir.

Ta'limda kompetentlik bilan yondashuv o'quvchilarni turli ko'nikmalarni egallash, kelajakda ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy⁹ hayotlarida samarali harakat qilishga yo'naltiradi. Kompetensiya – bu kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat belgisidir. U bilim mahsuli bo'lib, mutaxassis tomonidan uni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Kompetensiyaning bilimdan farqi shundaki, vazifani amaliy bajarmasdan turib, uni aniklab ham, baxolab ham bo'lmaydi¹⁰. Malaka kompetentlikning muhim mezoni bo'lib, u turli holatlarda, shu qatori muammoli vaziyatlarda ham bir necha bor qo'llash natijasida namoyon bo'ladi. Amaliy kompetentlik - bilim mahsuli bo'lib, amaliyotda qo'llay bilish qobiliyati. Hamda kompetensiyaning bilimdan o'gacha, amaliy faoliyatsiz aslo paydo bo'lmaydi va baholay olish iloji yo'q. Kasbiy kompetentlik – kasbiy faoliyatga oid masalalarni hal etishda bilim va ko'nikmalarni amaliy tajribada samarali qo'llay olish qobiliyatidir. Kasbiy kompetentlik –mutaxassis tamonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakaning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olish. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanish emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va xarakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Hamda kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi. Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi: murakkab jarayonlarda, noaniq vazifalarni bajarishda, bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda, kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda. Kasbiy pedagogik kompetentlik pedagogik voqealikni izchil idrok eta bilish va unda izchil harakat qila olish malakasini qamrab oladi. “Kompetentlik” va “Kompetensiya” o'zgaruvchan vaziyat va holatlarda barqaror natijaga erishishdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'limga kompetentlik bilan yondashish, tarbiyalanuvchilarni turli ko'nikmalarni egallash, kelajakda ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy hayotlarida samarali harakat qilishga yo'naltiradi. Kompetentlik tarbiyachining mavzuni mazmun jihatidan o'zlashtirish, o'rganish, mustahkamlash, qaytarish hamda mustaqil ish uchun materialni tanlashida, o'zining dunyoqarashini kengaytirish uchun o'zlashtiradigan bilimlar negizida ham namoyon bo'ladi.

⁸ <https://ares.uz/storage/app/media/2022/Vol 3 No 1/...>

⁹ <https://ares.uz/storage/app/media/2022/Vol 3 No 1/...>

¹⁰ <https://kompy.info/mavzu-pedagogik-kasbiy-kompetentlik-va-kreativlik.html>



Kasbiy-pedagogik kompetentlik asosan to'rtta komponenti bilan asoslanadi: shaxsga, insonga yo'nalganlik, pedagogik voqealikka izchil idrok etish, fan sohasiga yo'nalganlik, pedagogik texnologiyalarni egallash. Pedagogning kasbiy kompetentligi kreativlik bilan xarakterlanadi. Zamonaviy tarbiyachida kasbiy kompetentlikni shakllantirishda bilim manbai sanalgan amaliyotning ahamiyati haqida so'z yuritganda bilish jarayonining mohiyatini ham ta'kidlab o'tish joiz. Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, talabalarning pedagogik ehtiyojlari, qiziqishlari, alohida ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlarini tizimli tarzda o'rganish lozim. Shuningdek, talabalarning kreativ qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan g'oyalar, konsepsiyalar hamda ilg'or pedagogik tajribalar asosida o'qitish jarayonini tashkil etish kreativlikni rivojlantirishga nisbatan yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Talabalarning kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish asosida ulardagi ixtisoslashgan ya'ni pedagogik kreativlik kompetentligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, bunda zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion strategiyalar, interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq¹¹.

References:

1. Sharipov SH.S. Kasb-hunar ta'limida Talabalar ijodkorlik qobiliyatlarini uzluksiz rivojlantirish. Monografiya. –T.: Fan, 2005. – 140 b.
2. Z.T. Nishonova, Z.Qurbonova, D.S.Qarshiyeva, N.B.Atabayeva Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya - T.: Fan va texnologiyalar 2014,124-b.
3. Тест креативности Торренса. Диагностика творческого мышления <http://psycabi.net/testy/577-test-kreativnosti-torrensa-diagnostika-tvorcheskogomyshleniya>.
4. Pedagogik kompetentlilik va kreativlik asoslari" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma:– Toshkent 2015,40 b.
5. Роу А.Дж. Креативное мышление / Пер.с.англ. В.А.Островского. М.: НТ Пресс, 2007,176с.

¹¹ [Oliy ta'lim muassasalarida kreativ yondashuv asosida mustaqil ta'limni tashkil etishning didaktik imkoniyatlari – ijtimoiy.uz](http://ijtimoiy.uz)